

Date: 9th April-2026

IDIOMALARNING VAZIFAVIY XUSUSIYATLARI

Gulchexra Begmatova

Termiz davlat universiteti o'qituvchisi

gulchexra.begmatova.83@bk.ru



Funksiya yoki vazifaviy xususiyatlar deganda alohida elementning xususiyatlarining u tarkibiy qismi bo'lgan butunlikka nisbatan namoyon bo'lishi tushunilishidir. Frazologik birliklar o'z tabiatiga ko'ra belgilanadigan o'ziga xos vazifalar majmuasiga ega. Ba'zi funktsiyalar doimiy, ya'ni har qanday kontekstdagi barcha frazeologik birliklarga xos bo'lsa, boshqalari o'zgaruvchan va faqat ma'lum bir frazeologik birlik turlariga xosdir. Har bir aniq lingvistik vaziyatni tasvirlash uchun tilda stereotipik modellar shakllanadi. Bular tilda idiomatik birliklarsifatida qayd etiladi. O'rganilayotgan idiomalarning asosiy funktsiyalari A.V. Kunin nazariyasi asosida bir nechta vazifaviy xususiyatlarga ega ekanligini, shuningdek, ushbu funksiya turlari stilistik, kumulyativ, yo'naltiruvchi, baholash va umumlashtiruvchi vazifalarni o'z ichiga oladi. Stilistik funksiya nutqda frazeologik birliklarning konnotativ xususiyatlarini, jumladan, hissiy, ifodali va baholash komponentlarini amalga oshiradi. Idiomalar haqida ko'plab ishlar muallifi A.V. Kunin idiomalarning bir qator funktsiyalari, vazifaviy xususiyatlari borligini ta'kidlagan, bular qatoriga pragmatik, modellashtiruvchi, semantik, kommunikativ, kognitiv, uslubiy (stilistik), baho funktsiyalari shular jumlasiga kiradi. Bular ichida pragmatik funksiya yana o'z navbatida kichik guruhlarga bo'linadi. Shunga muvofiq ochib beriladi, ya'ni nominativ va kognitiv funktsiyalar bilan o'zaro ta'sir qiluvchi kommunikativ funktsiyalardir.

A. Kunin tomonidan taklif etilgan va foydalanilib kelinayotgan idiomalar funktsiyalari sxemasida asosan Hind-Yevropa xalqlari tillari, xususan, rus va ingliz tillariga xos idiomalar uchun xoslangan, ammo ba'zi funktsiyalar va terminlarni boshqa tillardagi idiomalar funktsiyalari uchun ham qo'llash foydalidir. Idiomalarning funktsiyalari ichidan kumulyativ funktsiyani ko'rib chiqamiz.

Kumulyativ so'zi lotincha "cumulatio"- yig'ish, to'plash ma'nosiga ega bo'lib, tibbiyot, lingvistika va mashinasozlik sohalarida faol ishlatiladi. Kumulyativ vazifa ishlaganligi sababli tildagi milliylik, etnografik (urf-odatlar), folklor (doston, ertak, asotirlar) va boshqa o'ziga xos birliklar, jumladan idiomalar ham avloddan-avlodga o'tib kelmoqda. Shu jarayonda prototip voqealar asosida ma'lumotlar idiomalar, frazeologizmlar shaklida keyingi avlod nutqiga o'tadi. Masalan, og'zida qatiq ivitmoq idiomasi tahlil qilsak, qatiq ivitish horvador mahalliy xalqning echki, qo'y va sigir sutini maxsus idishlarda (qovoqning qattiq turi va yog'och idishlarda oqlik qo'shilgan sutni iliq va tinch holatda saqlash natijasida yuzuga keladigan biomassa, fermentlangan sut mahsuloti hosil bo'lishi bilan bog'liq. Zamonaviy dunyoda yoshlar qatiq tayyorlash jarayonini keksa avlod tayyorlagan kabi bajarishida ham ushbu idiomaning o'rni beqiyos. Ya'ni idioma mazmuni gapirmaslik og'zida qatiq ivitish sifatida obrazli ifodalangan. Qotib qolgan, mazmuni va tarkibidagi so'zlar semantikasi tubdan farqlanadi deya ta'riflangan

Date: 9th April-2026

idiomalar qachonlardir tarixiyasosga ega bo'lgan. Ya'ni, idiomalar faqat xalq tomonidagina yaratilmay, balki aniq tarixiy shaxs va tarixiy voqeaga asoslanib, keyinchalik o'z ma'nosini yo'qotgan.

Kumulyativ funktsiya barcha lingvistik birliklarga xos, bu esa lingvistik soha – so'zlarda, frazeologik birliklar, aforizmlarda aniq aks etadi. Madaniyatlararo aloqa sharoitida semantikaning milliy-madaniy tarkibiy qismi bilan so'z boyligini bilmasdan turib, uni to'la o'zlashtirish mumkin emas. Idiomalar milliy tilning ichida bo'lib, unda millatning ruhi, o'ziga xosligi takrorlanmas tarzda namoyon bo'ladi". O'z navbatida, idiomalar o'zlarining kumulyativfunktsiyasi tufayli transformator bo'lib xizmat qiladi, buning natijasida hatto eng qadimgi madaniyat qatlamlari ham zamonaviy nutq va tafakkur dolzarbligiga bog'lanadi. Idiomatika nafaqat o'tmishdan hozirgi kun, balki hozirdan kelajak avlod mulohazasini ta'minlaydi. Avlodlararo madaniyat translyatsiyasi va frazeologiya sinxronligi diaxroniya, an'ana va evolyutsiya uzviyligini ta'minlaydi.

Kumulyativ funktsiya shundan iboratki, ma'lum bir xalqning ko'p yillar davomida to'plangan tajribasi, an'analari va turmush tarzi tilda to'planadi. Kumulyativlik sababli insoniyat to'plagan bilimlar to'planib, avloddan-avlodga o'tib bormoqda.

Idiomalarni o'rganishga bag'ishlangan tadqiqotlardan biri, G.N. Smagulovning "Rechevayakultura sovremennoy molodyoji (na materialax kazaxskix frazeologizmov)" nomli maqolasida qozoq tilidagi ba'zi frazeologizmlar lingvomadaniy jihatdan tahlil qilingan[5, 5]. Muallif hozirgi zamon qozoq yoshlaridan so'rov olinganda milliy ahamiyatga ega idiomalarni faqat yoshi ulug' bobo va momolari nutqida eshitganlarini ta'kidlagan va ularning mazmunini bilishmagan yoki noto'g'ri talqin qilishgan. Bu esa idiomalarni nafaqat o'zbek tilida, balki boshqa turkiy tillarda so'zlashuvchi yoshlar nutqida faol ishlatilish chora-tadbirlarini ishlab chiqish kerakligini ko'rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Begmatova. G.X. O'zbek til milliy korpusida idiomalar bazasini yaratish. Monografiya. Globe Edit. 2024
2. Begmatova G.X. O'zbek milliy korpusida idiomalar bazasini yaratish. Filologiya fanlari falsafa doktori dissertatsiyasi. Termiz, 2021.
3. Кунин А.В. Фразеологические единицы и контекст // ИЯШ. 1971. №5
4. <https://cyberleninka.ru> /Лаврентьев А. М Корпусная лингвистика: идеология, методы и технологии.
5. <https://cyberleninka.ru/> Смагулова Г. Н. Речевая культура современной молодежи (на материалах казахской фразеологизмов). 2014.

